

# THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

## VOLUME-4, ISSUE-6

UDK-63.636

### QO'YLARNING JUN MAHSULDORLIGINI O'RGANISH SAMARADORLIGI

\*R.Karimov

*Qoraqalpog`iston Qishloq Xo`jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti, assistenti*

\*A.Kaniyazova

*Qoraqalpog`iston Qishloq Xo`jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti, assistenti*

\*Murodova Ozoda

*Qoraqalpog`iston Qishloq Xo`jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti, talabasi*

#### Annotation:

*This article provides information about the Karakol breed of sheep, which is mainly bred to obtain high-quality commercial Karakol skins; the coarse wool obtained from them is a commercial product that ensures a certain economic sustainability of livestock farms. The wool productivity of Karakol sheep is influenced by their live weight, color, gender, level of fatness, type of fat, type of wool constitution and many other factors.*

**Key words:** Karakol, wool, productivity, barra, income, interest.

#### Аннотация:

*В этом статьи представлены сведения о каракольская порода овец который в основном разводится для получения качественных товарных каракольских шкур, получаемая из них грубая шерсть является товарным продуктом, обеспечивающим определенную экономическую устойчивость животноводческих ферм. На шерстную продуктивность каракольских овец влияют их живая масса, окрас, пол, уровень упитанности, тип ясира, тип конституции шерсти и многие другие факторы.*

**Ключевые слова:** Каракол, шерсть, производительность, барра, доход, процент.

#### Annotatsiya:

*Qorako'l qo'y zoti asosan yuqori sifatlari bozorbop qorako'l terilarini olish uchun urchitilsa ham, ulardan olinadigan dag'al jun, qorako'lchilik xo'jaliklarining ma'lum miqdorda iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi tovar mahsulotini hisoblanadi. Qorako'l qo'ylarining jun mahsuldorligiga ularning tirik og'irligi, rangi, jinsi, semizlik darajasi, barra tipi, jun-konstitutsiya tipi va boshqa ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** Qorako'l, jun, maxsuldarlik, barra, daromad, foiz.

**Kirish:** O'zbekistonda va dunyoda qorako'lchilikning axvoli, kelajakdag'i istiqboli, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishi, yangi sermahsul zot tiplarini, zavod tiplarini, rang va rang-barangliklarni yaratish va ulardan unumli foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Qorako'l qo'yining genofondini saqlash muammolari, mo'yna bozori talabiga javob beradigan, jun tola qoplami ipaksimon, yaltiroq va engil bo'lgan qorako'l terilarni etishtirish amaliy ahamiyatga ega.

Qorako'lchilik O'rta Osiyo mintaqasida chorvachilikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri xisoblanadi. O'zbekiston qorako'lchilik mahsulotlarini etishtirish bo'yicha jaxondagi oldingi o'rnlardan birini egallaydi.

Qorako'l qo'ylarining jun maxsuloti xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega bo'lib, jami ishlab chiqarilgan dag'al junning 70-80 foiziga yaqini qorako'l qo'ylari juni zimmasiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda qorako'lchilik xo'jaliklarida junni sotishdan kam miqdorda daromad olinayapti. Ma'lumki, qorako'l qo'y zoti bilan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari azaldan

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-6

ma'lum bo'lgan chorvadorlar amaliyotda mazkur zotning o'ziga xos ichki tuzilishiga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan qorako'l qo'yłari jun konstitutsiya tiplariga, barra tiplariga, klasslarga, jun qoplaming ranglariga, boshqa belgi va xususiyatlariga ko'ra turli guruhlarga ajratiladi. Qorako'l qo'yłari konstitutsiya tipiga ko'ra, ularning maxsuldarlik darajasi turlichay bo'lishi dolzarb axamiyat kasb etadi.


**Asosiy bo`lim:** Mustaxkam konstitutsiyadagi qo'ylardan qirqib olingen jun runolari tekisligi ancha yuqoridir. Dag'al konstitutsiyali qo'yalar runosining 55 foiz tolalari ingichkaligi va uzunligi bo'yicha tekis bo'lsa, nozik konstitutsiyali qo'yalar runosining atigi 40-42 foizi tekisdir. O'tkazilgan tadqiqotlar haqiqatdan ham sur qo'yarning jun qirqimi miqdori jun konstitutsiya tiplariga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. «Saribel» naslchilik xo'jaligida o'tkazilgan tajribalar natijalari qorako'l qo'yalar junining sifatiga har xil jun konstitutsiya tiplarning ham ta'siri borligini ko'rsatdi (Nasimov E. va boshqalar 2011). Qo'yalar junining sifat ko'rsatgichlari quyidagi 1 - jadvalda keltirilgan.

1 - jadval

#### Qo'yalar junining sifati

Jun-konstitutsiya tiplari	Shu jumladan soni			
	Och		Rangdor	
	I – klass	II – klass	I – klass	II – klass
G'o'za moy	3	2	3	2
Oq gul	2	3	2	3
Nozik	3	2	4	1
Qirriq	1	1	2	1

Yuqoridagi keltirilgan jadval ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, oq gul jun konstitutsiya tipli qo'yarda II – klass qo'yalar 6 bosh bo'ladigan bo'lsa, g'o'zamoy jun konstitutsiya tipli qo'yarda 4 boshga to'g'ri keldi, nozik jun konstitutsional tipli qo'yarda 3 bosh, qirriq jun-konstitutsiya tipida esa 2 bosh II – klass qo'yalar mavjudligi aniqlandi.



Diyagramma-1

Qorako'l qo'yłari jinsiy jihatdan 6-8 oyligida voyaga etsa, umumi fizologik nuqtaiy nazardan 18 oyligida voyaga etadi. Lekin hayvon organizimining rivojlanishning eng yuqori

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-4, ISSUE-6

nuqtasi ularning 3 – 4 yoshga to‘g‘ri keladi, chunki bu vaqtida ayrim organ va to‘qimalar to‘liq shakillangan bo‘ladi, ona qornidagi homila ham to‘lig‘icha (organizm taraqqiyotiga zarar keltirmasdan) oziqa moddalari bilan ta‘minlanadi. Qorako‘l qo‘ylarning bo‘g‘ozlik davri asosan qishlov mavsumiga to‘g‘ri keladi. Qorako‘l qo‘ylari cho‘l hayvoni bo‘lganligi uchun ham qishlov davrida o‘z organizimini oziqa moddalari bilan to‘lig‘icha ta‘minlay olmaydigan noqulay kunlar ham anchagina bo‘ladi. Ana shuning evaziga sovliqlar vazni ancha kamayib ketadi.

Ta’kidlash joizki to‘rtta konstitutsiya tipi ichida qo‘pol tipida jun tolasi uzun bo‘lishini ko‘rsatadi. Jun mahsuldorligini oshirish uchun tirik vazni anchagina og‘ir, o‘lchamlari katta, mustahkam konstitutsiyali, yaxshi va ko‘p jun beradigan va qorako‘l teri sifati yuqori qo‘ylarni ko‘proq o‘rchipish zarur. Qo‘ylarning juni ularning tirik vazniga va tanasining o‘lchamlariga ham bog‘liqdir. Qo‘ylarning teri sathi qancha katta bo‘lsa, jun mahsuldorligi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Qo‘chqorlar jussasining katta bo‘lganligi sababli, sovliqlarga nisbatan ularning jun mahsuldorligi anchagina ortiq bo‘ladi. Har xil jun tolalari miqdori va sifati ham qo‘ylarning jinsiga bog‘liq holda o‘zgaruvchanlikka ega.

**Xulosa:** Jun tolalarning ingichkaliklari eng muhim texnologik xususiyatlaridan biri bo‘lib, junning sifati va to‘qiladigan matolarning miqdori asosan ana shu hususiyatga bog‘liqdir, ya’ni jun tolasi qanchalik ingichka bo‘lsa, undan to‘qiladigan metrajli matolar miqdori va sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Jun tolalarining ingichkaligi ko‘pgina omillarga: jumladan qo‘ylarning zotlari, oziqlanish va asrash sharoitlari, barra tiplari, jun konstitutsiya tiplari va xokazolarga bog‘liqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. G‘oyipov X.E. “Mehnat muxofazasi” Toshkent. 2000 y. 50, 133, 134 betlar.
2. Иноятов А. – “Содержание меланина и некоторые физико-механического свойства волоса каракульских ягнят различной окраски и происхождения” Автографат диссертации на соискание ученой степени канд. с.-х наук. П. Дубровици, Московской обл. 1986.
3. Isamuxamedov S., Kuchchiev O., Xojaev U., Yusupov B., Tajixanova S., Karimkulova R. Donador oziqalarni tayyorlash texnologiyasi. j.Zooveterinariya, 2013, №6 44 bet
4. Qo‘ldoshev O.O‘. Ferma va fermer xo‘jaliklarida veterinariya - sanitariya va zoogigienik shart - sharoitlarini yaratish. J. Zooveterinariya 2010 yil № 1 25-26 s.
5. Mamatiminov SH.K., 3. Tulaganova, K. Nazirov, YO. Karimova. Qishloq xo‘jaligi hayvonlarining **oziqlanishdan** zararlanishi, mikotoksikozlar J.Zooveterinariya, 2013, №12 32 bet
6. Musinov YA.X., CHalabaev A.J. Saqlash usulining hayvonlar organizmiga ta’siri. Fan yutuqlari va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish istiqbollari. Ilmiy-anjuman materiallari Sam DU Samarqand, 2005 y.
7. Nasimov e., CHalabaev A.J., Inoyatov A. Qora rangli qorako‘l qo‘zilarda rangining pigmentatsiyasini boshqa xususiyatlar bilan aloqadorligi. Sam QXI professor-o‘qituvchilar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. II – qism. Samarqand, 2015 102-105 betlar.